

SIFATDA KONVERSIYA HODISASI

Majidova Shahnoza Komilovna

TerDPI katta o'qituvchisi

Ergasheva Zebo Odiljon qizi

TerDPI 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sifat turkumiga xos so'zlar boshqa turkum so'zlari bilan muntazam qo'llanishi natijasi o'laroq shu turkumga xos lingvistik xususiyatlarni ham o'zida kasb eta borganligi, natijada boshqa turkum so'zlari guruhidan o'rin olganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari sifatning taraqqiyoti boshqa turkumlar bilan uzviy bog'liq. Ot asosidan ajralib chiqqan, til taraqqiyoti natijasida mustaqil rivojlanish yo'lga ega bo'lgan mazkur turkum so'zlarining imkoniyat doirasi kengayib borayotganligiga guvoh bo'lamiz. Bu holni sifatda keng kuzatiladigan polisemiya bilan ham dalillash mumkinligini yozilgan.

Kalit so'zlar: sifat, so'z turkumlari, turkumlararo ko'chish, sifatda sintaktik kategoriya, kategorial ma'no, kesimlik kategoriyasi.

Sifat turkumiga xos so'zlar boshqa turkum so'zlari bilan muntazam qo'llanishi natijasi o'laroq shu turkumga xos lingvistik xususiyatlarni ham o'zida kasb eta borganligi, natijada boshqa turkum so'zlari guruhidan o'rin olganligiga guvoh bo'lamiz.

Umuman, bir turkum so'zi boshqa turkum so'ziga ko'chganda bir vaqtlar bir turkumda bo'lib, til taraqqiyoti natijasida ikkinchi turkumga o'tgan so'z nazarda tutiladi. So'z turkumlari orasida ko'chish bo'yicha olim A.G'ulomovning tadqiqotlari e'tiborga molik¹. Bu boradagi oxirgi fundamental tadqiqotlardan biri J.Eltazarov tomonidan amalga oshirildi².

Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlararo ko'chishning quyidagi turlari mavjud: 1. Otlanish (Substantivatsiya), 2. Sifatlanish (Adyektivatsiya), 3. Sonlanish (Numerilizatsiya), 4. Olmoshlanish (Pronominalizatsiya), 5. Ravishlanish (Adverbializatsiya), 6. Fe'llanish (Verbalizatsiya), 7. Tasviriylanish (Essivatsiya) 8. Undovlanish (Interyektivatsiya), 9. Modallashish (Modalyatsiya), 10. Ko'makchilashish (Postpozitionalizatsiya), 11. Bog'lovchilanish (Konyuktionalizatsiya), 12. Yuklamalashish (Partikulyatsiya).

¹ Холмуродов А. Креолизованные и некреолизованные подсистемы современного узбекского словообразования. – Тошкент. Фан, 1989. – Б. 46-52.

² Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. – Тошкент. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, – Б. 135.

Har qanday tildagi soʻz turkumlari koʻchish hollarini bevosita tahlil qilayotganda bu masalaning ikki ajralmas tomoni: oʻsha soʻz turkumining boshqa soʻz turkumlariga koʻchishi va boshqa soʻz turkumlarining mazkur soʻz turkumga koʻchishini nazardan qochirmaslik kerak, chunki til birligining nutqda amal qilinishi va soʻz turkumlararo aloqaning roʻyobga chiqishida koʻchishning har ikki turining qiymati tengdir³. Soʻzlar bir turkumdan ikkinchi turkumga oʻtganda mazkur soʻzning grammatik mohiyati, qisman maʼnosi oʻzgaradi. Sifatning otga koʻchishi ham shunday hodisadir. Masalan, qiz, oʻgʻil, yosh, qari, erkak, xotin, ayol, kasal, chol, kampir kabi soʻzlar bir vaqtlar sifat boʻlib, keyinchalik otga oʻtgan. Bu hol, yaʼni oʻtish birdaniga emas, balki bir-ikki avlod koʻz oʻngida yuz beradi. Yuqoridagi kabi soʻzlarning otga koʻchganini yoki koʻchayotganini koʻrsatuvchi ikkinchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishidir: yosh yigit, qari chol, chiroyli xotin kabi. Konversiya yoʻli bilan sifatga koʻchgan soʻzlar quyidagilar: 1. Juft va takroriy otlar: mosh-guruch, yoʻl-yoʻl, rang-barang, xilma-xil. 2. Oʻzak holdagi feʼllar: daydi, qari, och, chalkash, yanglish, tutash, aralash. 3. Harakat nomi shaklidagi juft feʼl: olmoq-solmoq. 4. Yaqin (aniq) oʻtgan zamondagi juft feʼllar va feʼlli birikmalar: oldi-qochdi (gap), kuydi-pishdi (ayol), tugʻdi-bitdi (farzand), ichakuzdi (hangomalar), supraqoqdi (oʻgʻil, yaʼni kenja oʻgʻil). 5. Takroriy olmosh: manman. 6. Takroriy son: birdan-bir⁴.

Sifat turkumida sintaktik kategoriya keng boʻlmagan voqelanishga ega.

Egalik kategoriyasi. Sifat turkumi egalik kategoriyasi umumiy grammatik maʼnosini “keyingi sifatni oldingi soʻzga bogʻlash va mansublik, xoslik maʼnosini ifodalash” tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi soʻzning semantikasiga bogʻliq ravishda turli-tuman grammatik maʼno ifodalanishi mumkin. Lekin “keyingi sifatni oldingi soʻzga bogʻlash” kategorial maʼno xususiylashmasi sifatida oʻzgarmay qolaveradi. Quyida sifat turkumining egalik kategoriyasi umumiy grammatik maʼnosini xususiylashtirishidagi oʻziga xosliklarni koʻrib oʻtamiz.

Egalik affiksi oʻzi birikkan soʻzning boshqa soʻz bilan bogʻlanishida ishlatiladi. Bu vaqtda egalik kategoriyasidagi soʻz qaratqich kelishigidagi soʻz bilan keladi: *olmaning qizili, odamning aqllisi*.

Egalik kategoriyasidagi soʻz baʼzan chiqish kelishigidagi soʻz bilan ham birga qoʻllanilishi mumkin: *odamlardan aqllisi*.

Egalik kategoriyasidagi soʻzda affiks maʼnosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga oʻtib ketadi: (*odamning*) *yaxshisi*.

³ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент. Ўзбекистон, 1992. – Б. 32.

⁴ Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Исқандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент. Шарқ, 2001. – Б. 48.

Egalik kategoriyasining birlik va ko‘plik shakli qo‘llanilishda farq bor. Ko‘pincha miqdor bildiruvchi o‘zakka birlik son shakli qo‘shilmaydi: *aqllingiz, ko‘pimiz*. Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: *nodoni, rangdori*.

Kelishik kategoriyasi. KK sifatda EK bilan birga qo‘llanadi.

Bosh kelishikdagi sifat ega vazifasida keladi: 1. *Ukamning kichigi – o‘qituvchi.*
2. *Darvoza tepasiga shoxning kattasi qo‘yilgandi.*

Qaratich kelishigidagi sifatda “sifatni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so‘zga bog‘lash” tarzida xususiylashadi: *Inson yalqovining bahonasi ko‘p.*

Tushum kelishigidagi sifat gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan sifat vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keladi. “Sifatga obyekt tusini berish va uni fe’lga vositasiz to‘ldiruvchi sifatida bog‘lash” TK UGMsining sifat turkumidagi xususiylashuvi: *Gulning qizilini ajratdi.*

Chiqish kelishigi KK UGMsini umuman “oldingi so‘zni keyingi fe’lga o‘rin-payt holi va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida bog‘lash” tarzida, sifat turkumida esa “oldingi sifatni keyingi fe’lga o‘rin-payt holi va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida bog‘lash” ko‘rinishida xususiylashtiradi.

Chiqish kelishigidagi sifatning vazifalari:

- a) vositali to‘ldiruvchi: *Qarzni odamning yaxshisidan so‘rang.*
- b) o‘rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi.*
- d) sabab holi: *Piyozning achchig‘idan ko‘zlari qizardi.*

Jo‘nalish kelishigidagi sifat ish-harakat yo‘nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *og‘iriga, yaqiniga.*

Jo‘nalish kelishigidagi sifat gapda to‘ldiruvchi, hol kabi bo‘lak vazifasida keladi:

1. *Qizning ko‘zlarining qorasiga havaslanib boqdi.* 2. *Bola hovuzning to‘lasiga yugurdi.*

Ko‘rinadiki, jo‘nalish kelishigi sifat turkumida kelishik kategoriyasi UGMsini “oldingi sifatni keyingi fe’lga vositali to‘ldiruvchi va hol vazifasida bog‘lash” tarzida xususiylashtiradi.

O‘rin-payt kelishigi sifat turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosini “oldingi sifatni keyingi so‘zga vositali to‘ldiruvchi va hol vazifasida bog‘lash” tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o‘rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma’nolarni ifodalaydi: *Odamning pismig‘ida gap ko‘p.*

Kesimlik kategoriyasi. Bog‘lama. Kesimlik kategoriyasi sifat turkumida ham o‘z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qilib, ikki ko‘rinishga ega bo‘ladi:

- a) hozirgi zamon ko‘rinishi;
- b) o‘tgan va kelasi zamon ko‘rinishi.

Ko‘p hollarda sifat turkumida kesimlik kategoriyasi bog‘lama vositasida yuzaga chiqadi.

Bog‘lama kesimlik kategoriyasini sifat va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so‘zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To‘liqsiz fe‘l, *bo‘l*, *hisoblanmoq*, *sanalmoq*, *deyilmoq* kabi mustaqil fe‘l sifatda ham bog‘lama vazifasini bajaradi.

Sifat turkumga xos so‘zlarning ravish bajargan vazifalarda kelishi ham keng taraqqiy etganligiga guvoh bo‘lamiz. Sifat va ravishning leksik-semantik xususiyati o‘zaro bitta, ya’ni “belgi” termini bilan atalsa-da, biroq xarakter e’tibori, stilistik tomoni bilan ularning belgisi bir-biridan farqlanadi. Sifat turg‘un xarakterdagi belgini anglatrsa, ravish esa jarayon xarakteridagi (adverbial) belgidir. Sifat anglatgan belgi – birlamchi, ravish belgisi – ikkilamchi, ya’ni belgining belgisidir.

Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, ravish tabiatan sifatlardek turg‘un holatdagi belgini ifodalab, aniqlovchi xarakterida bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, bir qator sifatlar harakat jarayonining belgi ifodasini ko‘rsata oladi.

Chunonchi, “yaxshi” qabilidagi so‘zlar gapda hol bo‘lib kelishi bilan xarakterlanadi. Uzoq yillar davomida mana shu masala turli munozaralarga sabab bo‘lib keldi. Aniqrog‘i, ko‘pgina tadqiqotlarda muayyan so‘zning semantik taraqqiyoti, ularning o‘zaro sintaktik funktsiya almashish imkonini berish holati nazardan chetda qolib keldi. Vaholanki, so‘z turkumlari bir-biri bilan “ittifoq tuzishi”, ya’ni o‘zining so‘roqlarini boshqalar bilan baham ko‘rishi va o‘zi ham o‘rni bilan boshqa so‘z turkumlarining so‘roqlariga javob bo‘lishi tabiiy hol. Umuman, turkiy tillarda, belgi-xususiyat ma’nosidagi so‘zlar ot oldidan ham fe‘l oldidan ham kelib, ular ma’nosini konkretlashtiruvchi vazifani bajaradi. Bunday holda ular so‘zning ayni bir grammatik qiyofasida bo‘ladi. Manbalarda “yaxshi” qabilidagi so‘zlarning fe‘l oldidan kelishini konversiya (ko‘chish) hodisasi sifatida ham qaraydilar.

So‘z turkumlari orasida sintaktik funktsiya almashish, xususan, hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan hodisadir. Bu holat leksemaning til sathida keng imkoniyatlilikidan darak beradi. “Yaxshi” qabilidagi leksemaning matnda hol vazifasida qo‘llanishiga so‘zning funksional o‘zgarishi deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki “yaxshi” qabilidagi so‘zlar gapda hol bo‘lib kelishiga qaramay (masalan: qattiq gapirmoq, chiroyli kulmoq, dadil so‘zlamog), odatdagi leksik ma’nosini saqlaydi. Qiyoslash uchun “og‘ir” leksemasining fe‘l bilan birika olish imkoniyatini ko‘rib o‘tamiz. O‘TILda “og‘ir” leksemasining o‘ndan ortiq ma’nosini izohlangan. “Og‘ir” leksemasining atash semasi “vazni katta bo‘lgan, tosh bosadigan, vaznli” ma’nosini ifodalaydi. Ko‘chma ma’no (konnotativ ma’no)da og‘ir leksemasi harakat belgisini ham ifodalay oladi: *Ammo mana shu ro‘yirostlik Lolo uchun o‘g‘ir kechadi.* (H.Nazir) Bu holat (ish-harakat belgisini ifodalagan sifatlar)ni ayrim tadqiqotchilar adverbializatsiya hodisasi sifatida belgilaydilar. Shuningdek, bu yil bahor nihoyatda yaxshi keldi. *Shirin juda chiroyli kuladi* (N.Hikmat) kabi gaplarda “nihoyatda yaxshi”,

“juda chiroyli”, sifatleri grammatik jihatdan fe’llarga bog‘lanib, gapda hol vazifasida kelgan. Birinchi gapdagi “nihoyatda yaxshi” so‘zi grammatik jihatdan fe’lga bog‘lanib, gapda hol vazifasida kelgan bo‘lsa ham, mantiqan subyektning – “bahor”ning belgisini bildiradi va bu belgi harakatga ham ko‘chiriladi.

Yuqoridagi misollardan kuzatiladiki, ba’zi sifatlar o‘z vazifasi doirasini birmuncha kengaytirgan. Buni sifat leksemalarning nutqdagi imkoniyati sifatida qabul qilish lozim. Ish harakat belgisini bildirgan har qanday so‘zga ravish deb qarash ayni so‘z turkumiga leksik va sintaktik xususiyatlarni zo‘rma-zo‘rakilik bilan tirkashidan o‘zga narsa emas. Bu esa so‘z turkumlari tasnifida mantiqiy to‘g‘ri tasnif asosini buzishga olib keladi.

Aytish mumkinki, keyingi yillarda sifat leksemalarning semantik tuzilishidagi konnotativ ma’nolarning o‘rni va uning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Mazkur holat ham sifat va ravish turkumi chegarasini aniqlashtirishga ko‘mak beradi.

Ish-harakat tarzini ifodalash barcha sifatlarga xos xususiyat emas, albatta, ya’ni har qanday sifat ham ish-harakatning belgisini bildirolmaydi. Asosan, xarakter-xususiyat (yaxshi, yomon, qiziq, ruhli, yorqin, qattiq, yumshoq, toza, chiroyli, dadil), holat (erkin, ozod, tutqun, to‘liq), vertikal hajm (past, baland), vertikal shakl (tik), umumiy shakl (egri, to‘g‘ri), gorizont shakl (yopiq), umumiy hajm (katta, kichik), ichki hajm (keng, tor, chuqur), masofa (uzoq-yaqin), muddat (abadiy) va harorat (issiq, sovuq, illiq) belgisini bildiruvchi qismigina gapda hol vazifasida qo‘llanadi. O‘z semantikasiga ko‘ra “yaxshi” qabilidagi so‘zlar doim mavhum tushunchani anglatadi. Yuqoridagi so‘zlar nutq jarayonida hol vazifasida qo‘llanishi bilan mavhumlik yana oshadi. Shu yo‘l bilan fikrning grammatik ifodasi mustahkamlashadi va “yaxshi” qabilidagi so‘zlarning iste’mol doirasi kengayadi.

Kelishik shaklidagi sifatlar ham nutqimizda keng qo‘llanadi. Masalan, yangidan, eskidan, chindan, yolg‘ondan kabilar kelishik shaklidagi sifatdan hosil bo‘lgan holat ravishlaridir. Mazkur so‘zlarda kelishik qo‘shimchasi o‘z tabiatini mutlaqo o‘zgartirgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham “yaxshi” qabilidagi bir qator sifatlar ravish deb berilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Lug‘atda sifatlar ham ravishlardek ish-harakat belgisini ifodalay olish imkoniyatiga ega ekanligi, ya’ni sifatning semantik taraqqiyoti ularda o‘zaro sintaktik funksiya almashish imkonini berishi nazardan chetda qolgandek ko‘rinadi. Mana shu holat fe’l bilan birikib kela olishi tabiatiga ega bo‘lgan holat, xususiyat bildiruvchi sifatlarning lug‘atda ravishlar deb izohlanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Xullas, sifatning taraqqiyoti boshqa turkumlar bilan uzviy bog‘liq. Ot asosidan ajralib chiqqan, til taraqqiyoti natijasida mustaqil rivojlanish yo‘liga ega bo‘lgan mazkur turkum so‘zlarining imkoniyat doirasi kengayib borayotganligiga guvoh

bo‘lamiz. Bu holni sifatda keng kuzatiladigan polisemiya bilan ham dalillash mumkin. Bundan tashqari, yordamchi leksemalar tarkibida ham bir qator sifatlarni uchratish mumkin, (jumladan, boshqa, qarshi (ko‘makchi), yolg‘iz (yuklama) va h.k.). Bu holat ham (grammatikalizatsiya) sifat turkumining taraqqiyotidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холмуродов А. Креолизованные и некреолизованные подсистемы современного узбекского словообразования. – Тошкент. Фан, 1989. – Б. 46-52.
2. Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. – Тошкент. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, – Б. 135.
3. Majidova Shahnoza Komilovna, & Normamatova Husnora Shomamat qizi. (2024). XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFATLARLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS*, 57(1), 153–157.
4. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), 648–653.
5. Majidova Shahnoza Komilovna, Ne‘matova Jahonbibi Davron qizi. (2024). FEATURES OF THE USE AND EXPRESSION OF THE WATER LAXEM IN THE WORKS OF M. KOSHGARI, Y.H.KHAJIB, Z.M.BABUR. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(01).
6. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
7. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdulkarimovna. (2023). Ta‘lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 154–162.
8. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
9. Sahkiba Saidmuradova, & To‘lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE‘RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, 57(1), 147–152.
10. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE‘RIYATI VA TILI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 143–146.
11. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 168–170.
12. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.

- 13.Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(1), 63–75.
- 14.Nodira Hamidova. (2024). G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. PEDAGOGS, 57(1), 139–142.
- 15.Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA O‘XSHATISHLAR. PEDAGOGS, 57(1), 158–160.
- 16.Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI. PEDAGOGS, 57(1), 161–167.